



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- *yil*
yanvar-iyun



SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

XVI. DEMOGRAFIK HOLAT

Sirdaryo viloyatida 2023-yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **904,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 8,3 ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **390,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,1 %**), qishloq aholisi soni **514,7** ming kishi (**56,9 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

904,9*ming
kishi*

Tabiiy o‘sish

+8,9*ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



Qishloq

**43,1 %****56,9 %**

Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- iyul holatiga

- Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar - **31,8 %**
- Mehnatga layoqatli yoshdagilar - **- 58,5 %**
- Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar - **- 9,7 %**

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatimizda doimiy aholi sonining 31,8 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,5 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 9,7 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- iyul holatiga

Erkaklar




50,2%




454,4 ming kishi

Ayollar




49,8%



450,5 ming kishi

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi
2023- yil yanvar-iyun




2023-yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **52,9 %** farzandsiz, **24,3 %** bitta farzand bilan **22,8 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi*2023-yil 1- iyul holatiga, ming kishi*

| | 2022- yil | 2023- yil | O'sish sur'ati, % da |
|--------------------------|-----------|--------------|-------------------------|
| Sirdaryo viloyati | 887,1 | 904,9 | 102,0 |
| <i>shahar:</i> | | | |
| Guliston sh | 96,6 | 97,5 | 100,9 |
| Shirin sh | 19,2 | 19,4 | 101,0 |
| Yangiyer sh | 46,0 | 47,4 | 103,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqoltin t | 54,3 | 55,5 | 102,2 |
| Boyovut t | 134,6 | 137,5 | 102,2 |
| Sayxunobod t | 80,6 | 82,2 | 102,0 |
| Guliston t | 76,5 | 78,7 | 102,9 |
| Sardoba t | 68,6 | 69,8 | 101,7 |
| Mirzaobod t | 77,6 | 79,8 | 102,8 |
| Sirdaryo t | 133,5 | 135,8 | 101,7 |
| Xovos t | 99,6 | 101,3 | 101,7 |

Sirdaryo viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2023-yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Sirdaryo viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **211,4** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4,1** kishiga ortgan (2022- yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **207,5** kishi to'g'ri kelgan).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Guliston shahrida **2692,6** kishi, Yangiyer shahrida **1586,3** kishi, Shirin shahrida **1448,8** kishi, Boyovut tumanida **263,0** kishi, Sirdaryo tumanida **247,5** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Oqoltin tumanida **100,7** kishi, Mirzaobod tumanida **125,5** kishini tashkil etgan.


QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR

2023-yil yanvar-iyun holatiga, mingda



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-iyun holatiga, kishi



2023- yil yanvar-iyun oylarida **11,0** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **24,6** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **-0,2** promillega pasayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida **24,8** promilleni tashkil etgan).


VAFOT ETGANLAR

(yanvar-iyun holatiga)



Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan ko'rsatkich 0,4 promillega ko'paygan (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 4,3 promille bo'lган).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-iyun, kishi




2023- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 84,7 % – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 1,7 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 2,2 % – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,8% – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,2 % – yuqumli va parazit kasalliklardan 0,5% – O‘sintalardan vafot etganlar va 5,9 % – boshqa kasalliklardan,vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

(yanvar-iyun holatiga)


Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-iyun, birlik




2023- yilning yanvar-iyun oylarida **2,4** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,4** promille tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,9** promille kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **6,3** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

(yanvar-iyun holatiga)




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yil yanvar-iyun oylarida **0,8** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida **2,0** promille bo‘lgan).


JAMI KO‘CHIB KELGANLAR

(yanvar-iyun holatiga)



Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **3,1** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **6,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **1,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **8,1** promille bo‘lgan).


JAMI KO'CHIB KETGANLAR

(yanvar-iyun holatiga)



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **3,7** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **8,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,9** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **9,2** promille bo'lgan).

Aholining migratsiya ko‘rsatkichlari
(2023-yil yanvar-iyun, kishi)

| | Kelish | | Ketish | | Migratsiya saldosi | |
|--------------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|---------------------------|-------------------|
| | 2022- yil. | 2023- yil. | 2022- yil. | 2023- yil. | 2022- yil. | 2023- yil. |
| Sirdaryo viloyati | 3551 | 3059 | 4030 | 3693 | -479 | -634 |
| shaharlar | | | | | | |
| Guliston | 842 | 763 | 597 | 705 | 245,0 | 58,0 |
| Shirin | 128 | 134 | 151 | 127 | -23,0 | 7,0 |
| Yangiyer | 379 | 368 | 267 | 283 | 112,0 | 85,0 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqoltin | 163 | 144 | 301 | 190 | -138,0 | -46,0 |
| Boyovut | 300 | 236 | 594 | 499 | -294,0 | -263,0 |
| Sayxunobod | 194 | 35 | 271 | 205 | -77,0 | -170,0 |
| Guliston | 400 | 404 | 350 | 309 | 50,0 | 95,0 |
| Sardoba | 142 | 142 | 352 | 255 | -210,0 | -113,0 |
| Mirzaobod | 359 | 284 | 307 | 306 | 52,0 | -22,0 |
| Sirdaryo | 311 | 270 | 401 | 390 | -90,0 | -120,0 |
| Xovos | 333 | 279 | 439 | 424 | -106,0 | -145,0 |

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrations o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 67 2367000